

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 3

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 796 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-martda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Экологические и альтернативные заполнители для бетона в условиях Узбекистана.....	10
Акрамов Хуснитдин Ахрарович, Тохиров Жалолиддин Очилович, Самадов Хомид Самандарович	
Investitsion marketingni rivojlantirish asosida mintqa investitsiya jozibadorligini oshirish	16
Ahmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda yashil budjetlashtirish, energiya samaradorligi va issiqxona gazlari emissiyasi.....	22
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Quliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamanov Alisher	
Development of the Digital Economy as a Trigger of the Economic Growth of the New Uzbekistan.....	28
Luiza Sayfullovna Makhmutkhodjaeva, Umarova Shahnoza Akbarovna	
Oliy o'quv yurtlarida matematik statistikani o'qitishning xususiyatlari.....	34
Shamsiyev Damin Najmiddinovich, Aymatova Farida Xo'razovna	
Turizm tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari	37
Mardonova Dilafruz Kosimovna	
Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minoti: O'zbekistonda mayonez importini notarif tartibga solish va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari.....	41
Muratova Shohista Nimatullayevna, Nomozov Azizbek Xayrulla o'g'li	
Mamalakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qimmatli qog'ozlar bozorining o'rni va roli	46
Akramov Azamat Ramziddinovich	
Mamlakatning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida elektromobil sanoatini rivojlantirishning ahamiyati	53
Iminov Mahmudjon Azimjon o'g'li	
Hududiy eksport salohiyatini oshirishning marketing strategiyasi.....	60
Jiyamuratov Rustam Nuridinovich	
Turistik kompaniyalar moliyaviy barqarorligini baholash usullarini takomillashtirish kompaniya moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim mezonini.....	65
Jo'rayev Behzod Nuraliyevich	
Iste'molchilarni xulq-atvori modellari asosida marketing strategiyalarini shakllantirish.....	70
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish	75
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni.....	80
Otajonova Charosxon Polvonquli qizi	
Innovatsion menejment va raqamli transformatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslari.....	84
Quldoshev Asliddin Tursunovich	
Strategik boshqaruvda xususiy kapital samaradorligini baholash.....	89
Nasriyeva Zebiniso A'zam kizi, Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Mintaqalarni innovatsion rivojlantirish istiqbollari tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishni boshqarish yo'llari	100
Xodjamuratova Gulbaxar Yuldashevna	
Meva-sabzavot eksporti barqarorligini ta'minlashning ekonometrik tahlili	105
Shamsiyeva Feruza Muratxodjayevna	
Зарубежный опыт активизации экономической активности домохозяйств.....	111
Бердиев Гайрат Ибрагимович, Маликова Севинч Телман кизи, Люсикив Артемий Александрович	
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth: A Case Study of Uzbekistan.....	116
Abdulla Ibragimov, Keldiyorov Shakhriyor Ilyos O'g'li	



Mintaqada sanoat ishlab chiqarish rivojlanishining kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati	121
Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li	
Global iqtisodiyot sharoitida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etishdagi muammolar va yechimlar	125
Abduvosidova Gulandom Abdurashid qizi	
Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasida biznes subyektlarini toifalarga ajratish amaliyotining xususiyatlari	131
Akobirova Nodira Najmiddin qizi	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanish yo'llari	135
Axmedova Nafisa Amirddin qizi	
Strategic directions of integration of Uzbekistan into the international hospitality industry	140
Bekmurodova Laylo Tursunmamatovna	
Surxondaryo viloyatida parrandachilikni rivojlantirish ko'rsatkichlarini prognozlash va modelashtirish	144
Bobomuratov Imomqul Islamovich	
Mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati va uning tahlili	149
Talipova Dilfuza Nabiyeвна	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	154
Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li	
Analysis of the Influence of Macroeconomic Indicators on State Budget Tax Revenue	158
Meyliev O. R., Gofurova K.	
Mahalliy budjet xarajatlarini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri	166
Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li	
Influence of Digital Technologies on Economic Growth of the Republic of Uzbekistan	170
Igamberdiyeva Kunduz Ergashevna	
Transmilliy kompaniyalarning tashqi bozorlar uchun marketing strategiyalari va marketing tadqiqotlarini o'tkazish amaliyoti	174
Jo'rayeva Zilola Turobovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari	178
Kamilova Iroda Xusniddinovna	
Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish	183
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Tijorat banklari faoliyatida onlayn tizimlarining tutgan o'rni va ularning rivojlanishi	188
Raxmataliyev Muzaffar Eshdavatovich	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyatining ta'sirini baholashning nazariy asoslari	194
Fayziyeva Dilsuz Bahodirovna	
O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish samaradorligini oshirish	200
Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li	
Andijon viloyatida kambag'allik darajasini qisqarishiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar	214
Musaeva Ziyoda Allayarovna	
O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi eksportida marketing muammolari	218
Musyeva Shoirazimovna, Agzamov Avazxon Talgatovich	
Respublikamizda parranda bosh sonining hozirgi holati va uning istiqbollari	223
Akramova Nargiza Axrorovna	
Menejmentda ishbilarmonlik kommunikatsiyalaridan foydalanishda optimal strategiyalarini qo'llash shart-sharoitlari	227
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi	
Raqamlashtirish sharoitida innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari	231
Nazarova Latofat Toirjon qizi	
O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	235
Nurmuxammedov Matlab Yunusovich	



Davlat aktivlarini samarali boshqarish hamda nazorat qilishni takomillashtirish.....	240
Mirzayev O., Nazarov G'ayrat Olim o'g'li	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	246
O. U. Shomurodov, Z. U. Uroqov, A. T. Ablahatov, A. A. Suyarov, J. S. Urazov	
Methodological Aspects for Branding in Private Schools.....	251
Odilova Sitora Sayfitdin qizi	
Совершенствование процедуры оценки эффективности и результативности расходов государственного сектора.....	256
Олимов Элёр Фазлиддин угли, Искандаров Суннатилло Бахриддин угли	
Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blokcheyn texnologiyalardan foydalanish	261
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Markaziy Osiyoda energetika bozorini rivojlantirishning kelgusi istiqboli va imkoniyatlari.....	267
Saidov Mash'al Samadovich, Umarova Irodaxon Nuraliyevna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sug'urta bozorining innovatsion usullaridan foydalanishning konseptual asoslari	275
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Oliy ta'limda boshqaruv strategiyalari va ularni amalga oshirish mexanizmi.....	279
Saidqulova Firuza Farmonovna	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari	283
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
O'zbekiston Respublikasidagi mavjud suv resurslarining iqtisodiy holati tahlili	288
Shanazarova Gulyora Baxtiyarovna	
Tijorat banklari kredit risklarini kamaytirish yo'llari.....	294
Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi	
The use of Intellectual Systems in the Improvement of the Educational Process Management System in Higher Educational Institutions	303
Umarova Dilfuza Rakhmatilla qizi	
Oliy ta'lim tizimida yangi iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish.....	307
Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich	
Global iqtisodiy sharoitida moliyaviy hisobotlar auditida muhimliklarni baholashni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	311
Xasanova Nasiba Tolliboy qizi	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni tashkil etish istiqbollari.....	314
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Oliy ta'lim muassasalarida gibril bulut xizmat modelini qo'llash mexanizmini ishlab chiqish	319
Zaripov Bahodir Bobomurod o'g'li	
Роль инвестиций в системе железнодорожного транспорта в Республике Узбекистан	325
Акбарова Лайло Упашевна	
Gidrotexnik inshootlar betonlarini samaradorligini tahlil qilish va oshirish natijalari.....	330
Asqarov B. A., Karimov M. U., Xolmirzayev S.T., Obidjonov J. T.	
Maxsus iqtisodiy zonalar hududiga jalb etilgan investitsiyalar to'g'risida	334
Davlayev G'olib Ashurovich	
Yangi xizmat turi xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning metodologiyasi	337
Djurayeva Dilnoza Davron qizi	
Mintaqalar innovatsion salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvlari.....	343
J. A. Ismatullayev, D. X. O'rinov	
Milliy qayta sug'urtalovchilarning xalqaro sug'urta bozoriga kirib borishi va kutilayotgan xavf-xatarlar	348
Jorabayev Jasur Abduraxmanovich	



Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditi natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish tartibi	354
Ibragimov M. M., Ergashev O. F.	
Turistik destinatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirishning xorijiy tajribalari	358
Karimov Anvar Aktam o'g'li	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	362
Qurbonov Muxiddin Abdullayevich	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimini tadqiq etishga uslubiy yondashuvlar.....	367
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Allaberganov Zakir Gayibovich	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlarini	373
Mamatov Mamajan Axmadjonovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari eksport faoliyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	380
Mansurov Saidxo'ja Kamalovich	
Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish muammolari va dolzarb vazifalari	386
Musyeva Shoiraz Azimovna	
Устойчивый и инклюзивный рост: взаимосвязь экономического прогресса с социальным равенством и экологическим управлением	390
Нодирбек Холбаев	
Mintaqalarni investitsion jozibadorligini taraqqiyot strategiyasiga ta'sirini statistik baholash.....	396
Nuriddinov Zufar Akbarovich	
Финансирование каракулеводства: преодоление финансовых вызовов в пустынных регионах Узбекистана	402
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
O'zbekiston investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish.....	408
Oybek Elmuratov	
Intellectual mulkning iqtisodiy mazmuni va tarixiy rivojlanish bosqichlari	411
Maxmudova Nargiza Davlyat qizi	
Implementation and use of Digital Technologies in Logistics Abstract.....	416
Kushakova Mamura, Koshakova Mukhlisa Surat qizi	
Innovatsion iqtisodiyot tushunchasining mazmun mohiyati	421
Abduqaxorov Bekzod O'tkir o'g'li	
Raqamlashtirish iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida.....	426
Mamajonova Durdonahon Mamaruzi qizi	
O'zbekistonda tashqi savdoni notarif usullar orqali tartibga solishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri.....	431
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Инновационные методы переработки горных отходов для экологической устойчивости в Узбекистане	437
Аскарлов Бахтиер Аскарлович, Собирова Мукаддас Хамидуллаева	
Опыт зарубежных стран по стимулированию производства сельскохозяйственной продукции и перспективы внедрения в Узбекистан.....	442
Холиков Сулаймон Уткир угли	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning uslubiy jihatlarini.....	447
Pardayeva Shahnoza Abdinabiyevna	
O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni statistik tahlili.....	452
Sayfullayev Siddik Nosirovich	
Sug'urta tashkilotining innovatsion risklarini baholash.....	457
Sattorov Shoxrux Maxmudjon o'g'li	



Kapital bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari	462
Turdiyeva Uzayda Omirbayevna	
Адаптивный искусственный интеллект в управлении человеческими ресурсами	469
Хайдарова Малика Шокирджановна	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi zamonaviy va istiqbolga mo'ljallangan huquqiy asoslarning yaratilganligi to'g'risida	478
Xayriddinov Shuxrat Botirovich	
Investitsiya loyihalariga ta'sir qiluvchi risklarni sifat jihatdan baholash usullarining o'ziga xos xususiyatlari	482
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni kreditlash tartib va ularni takomillashtirish yo'llari	491
Yunusova Ozoda Anvarjon qizi	
Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda soliq salohiyatini oshirishning nazariy jihatlarini	498
E. N. Raximov	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning zarurligi	504
Avazov Iloxom Ravshanovich	
Inson resurslarini boshqarishning innovatsion usullarini joriy etish vositalarini ishlab chiqish	509
Djuraeva Guzal Shavkatovna	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	513
Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li	
Korporativ qimmatli qog'ozlar asosida korxonalarni moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari	517
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
The impact of corporate governance on firm performance and financial stability	524
Muhammadyor Yunusov	
Mintaqalarda kamg'allik darajasini pasaytirish va xorij tajribasidan foydalanish yo'llari	537
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash soliq ma'muriyatchiligini samarali tashkil etish yo'llari	541
Mutalova Dilorom Maxamadjanovna, Kenjaboyeva Nigina	
Iqtisodiy savodxonlik hamda tadbirkorlik qobiliyati o'rtasidagi to'g'ri nisbatdagi bog'liqlik munosabatining fundamental asoslari	544
Tuxtayeva Muyassar Shovkat qizi	
Korxonalarning bankrotlik riskini baholashning xalqaro modellari	550
Umarova Hulkar Umidulloyevna	
O'zbekistonda korxona boshqaruvida kadrlar salohiyatidan foydalanish amaliyotini rivojlantirishning xorij tajribasi	555
Do'stova Aziza Qahramonovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv tizimining xususiyatlari	559
Iroda Majidova	
Ziyorat turizmini rivojlantirishning muhim xususiyatlari	565
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li	
Qandolat mahsulotlari bozorida marketing tadqiqotlarini asosiy yo'nalishlari	569
Tuychiyeva Vasila Faxriddin qizi	
“Зелёная экономика” как фактор повышения экономического роста страны	573
Тураева Адиба Икрамовна	
Oilada sarf-xarajatlar samarasiga erishishning muhimligi	580
Xasanov Rustam Rabimovich	
Aholi farovonlik darajasidagi farqlarni tartiblash yo'nalishlari	583
Xasanov Rustam Rabimovich, Turdiyev Zoxidjon Rustamovich	




Совершенствование оценки стоимости объектов недвижимости в Узбекистане на основе зарубежного опыта.....	588
Хомитов К. З., Халилова Л. Ш.	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ahamiyati.....	594
Choriyeva Nigina Kaxramonovna	
Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish yo'llari	598
Alimbayeva Sevara Alimbayevna	
Yengil sanoatni rivojlanishida Germaniya tajribasi.....	601
F. Jumaniyazova, G'ulomov Ibroxim Rustam o'g'li	
The efficiency of usage of Islamic finance instruments in security market.....	607
Khasanov Umarbek Begmat ugli	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanishning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari.....	613
Mamasoatov Dilshod Ravshanovich	
O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilinishining hozirgi holati va muammolari	621
Nutfulloev Tolib G'olib o'g'li	
Mehnat bozorida raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish	627
Maxammadiyev M. M.	
Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish sharoitida mahsulot tannarxini optimallashtirish asoslari.....	632
Narzullayeva Gulchehra Salimovna	
Elektron pullarni rivojlantirish yo'llari	636
Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Egamberganov Mirzabek Odilbek o'g'li	
Загрязнение окружающей среды в Узбекистане: проблемы, причины и пути решения	644
Ишонкулова Феруза Асатовна, Шукуров Тимур Умидович	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarini transformatsiyalash modeli orqali takomillashtirish	649
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyeвна	
Land Tax Received From Individuals and its Share in the Budget of the Republic of Uzbekistan	656
Hakimov Feruz Khurshid ugli	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlar tahlili.....	659
Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi, Sharapova Mashxura Azadovna	
Qurilish xizmatlari ma'lumotlar tizimini takomillashtirish imkoniyatlari.....	665
Nurfayziyev Zayniddin Boymurodovich, Nurfayziyev Elyor Zayniddinovich	
Ipotekali kreditlashni rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribasi va uni O'zbekistonda tatbiq etish yo'llari	670
Turdiyev Shaxriddin Erxonovich	
Suv resurslaridan foydalanishda xorij tajribalari	675
Berdiyev Anvar Abdivaliyevich	
Auditda yetarli va mos dalillarni to'plash tartibi	681
Meliyev Isroil Ismoilovich	
"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi.....	686
Urunbayev Saparbek Samatovich	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari.....	692
Xolmuradov Raxmatilla Ne'matillaevich	
O'zbekiston mahsulotlarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligi xususiyatlari va onlayn platformalar.....	699
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich	
Factors affecting investment attractiveness in the global investment landscape.....	704
Otaboev Akhmed Makhsudbek o'g'li, Juliana Juliana, Fazliddin Nasriddinov	



Xalqaro migratsiyaning O'zbekiston mehnat bozori va inson kapitaliga ta'siri.....	709
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Анализ и оценка естественного освещения помещений образовательных учреждений.....	714
Пирмухамедова Шахноза	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан...	719
Рузибоева Нилуфар Тулкин кизи	
Методические подходы к формированию механизмов стратегического управления развитием химической отрасли.....	725
Бибутова Шахло Саъдуллаевна	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishning afzalliklari va muammolari	730
Axmedova Dilbar Buronovna	
Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishda sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning mohiyati.....	734
Ishmanova Diana Nurmamadovna	
Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlanti-rishning nazariy asoslari	737
Muxtorova Madina Azamat qizi	
Ipoteka kreditlari sohasidagi islohotlar va kelajakdagi istiqbollar.....	741
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
Sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari	746
Yodgorova Xalima To'liqinovna	
Budjet ijrosini samarali ta'minlashda davlat xaridlarining ahamiyati.....	752
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Fayzullayeva Zilola Ravshanovna	
Aholi sog'ligi – milliy boylikning tarkibi va jamiyat taraqqiyotining muhim shartidir.....	763
Djumabayeva Shaira Xalillayevna	
Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari: hisob siyosati.....	769
Rizayev Nurbek Kodirovich, Mamatova Charos Shavkiddinovna	
Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion muhitning o'rni	778
Valiyeva Sayyora Xushbaqovna	
Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ ijtimoiy mas'uliyat ("Rossiya temir yo'llari" OAJ misolida).....	784
Xidirova Marg'uba Rustamovna, Saidqulov Avazbek Botirqul o'g'li	
Raqamli transformatsiyaning O'zbekistonning investitsion jozibadorligiga ta'siri.....	790
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Markabayeva Jansaya Aybek qizi	



SUG'URTA TASHKILOTINING INNOVATSION RISKLARINI BAHOLASH



Sattorov Shoxrux Maxmudjon o'g'li

Toshkent moliya instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sug'urta tashkilotining innovatsion risklarini aniqlash, tahlil qilish va baholash masalalari muhokama qilinadi. Korxona va tashkilotlar uchun mavjud risklarni tahlil qilish va baholash hamda sug'urta tashkilotlari mijozlari uchun zamonaviy sug'urta xizmatlarini ishlab chiqish va taklif etish bo'yicha nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: risk, baholash, innovatsion rivojlanish, sug'urta tashkiloti, tartibga solish, raqobat, to'lov qobiliyati, global allianz, reyting agentligi.

Abstract: This article discusses the issues of identifying, analyzing and evaluating the risks of innovative development of the insurance organization. Theoretical information on the analysis and assessment of existing risks for enterprises and organizations, as well as the development and offering of modern insurance services for clients of insurance organizations.

Key words: risk, assessment, innovative development, insurance organization, regulation, competition, solvency, global alliance, rating agency.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы выявления, анализа и оценки рисков инновационного развития страховой организации. Теоретическая информация по анализу и оценке существующих рисков для предприятий и организаций, а также разработке и предложению современных страховых услуг для клиентов страховых организаций.

Ключевые слова: риск, оценка, инновационное развитие, страховая организация, регулирование, конкуренция, платежеспособность, глобальный альянс, рейтинговое агентство.

KIRISH

Sug'urta xizmatlari iqtisodiyotni turli xil moliyaviy xatarlardan himoya qiluvchi vositalardan biridir. Biroq mamlakatimiz moliya bozorida bu xizmatlarning o'zni hozircha yetarli emas. Ushbu sohaning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi atigi 0,4 foizni tashkil etmoqda. Qiyoslash uchun, bu ko'rsatkich Janubiy Koreyada 11 foiz, Germaniyada 6 foiz, Rossiyada 1,5 foizni tashkil etadi. ^[13] Sug'urta va baholash faoliyatlari o'rtasida integratsion munosabatlar shakllangan bo'lib, baholovchi tashkilotning fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi sug'urta polisining mavjudligi orqali asoslanadi. Bundan tashqari baholovchi tashkilotlarning fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi ^[1, 10, 14].


Innovatsion sug'urta risklarining dolzarbligi texnologiyaning jadal rivojlanishi va mijozlar yehtiyojlarining o'zgarishi bilan bog'liq. Innovatsiyalarni faol tatbiq etmaydigan sug'urta kompaniyalari o'zlarining raqobatbardosh ustunliklarini yo'qotish va zamonaviy bozor qiyinchiliklariga dosh bera olmaslik xavfini tug'diradi. Yangi texnologiyalar va mijozlar talablari asosida sug'urta xizmatlarini doimiy ravishda yangilash va rivojlantirish zarurati sug'urta tashkilotlarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sug'urta kompaniyasining innovatsion rivojlanish risklarini aniqlash, tahlil qilish va baholash, ya'ni innovatsion rivojlanish risklarini boshqarish tizimi sug'urta kompaniyasining umumiy risklarni boshqarish tizimi va korporativ boshqaruvining ajralmas elementi sifatida ko'rib chiqilishi kerak. ^[8] Bu sug'urta tashkilotlarining innovatsion rivojlanishi ularning raqobatbardoshligini mustahkamlashning zaruriy sharti hisoblanib, barqaror va uzoq muddatli o'sish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqot ishini o'rganishda avvalo mahalliy olimlarning sug'urta tashkilotining innovatsion risklarini baholash mavzusiga oid ilmiy nazariya va tadqiqotlari o'rganildi. Jumladan, iqtisodiyot fanlari doktori, dots.nt X.Shennayevning fikricha "mamlakat iqtisodiyoti subyektlari faoliyatiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan risklar, deb tadbirkorlik risklari va sof risklarni e'tirof etish mumkin. subyektning daromad va xarajatlari darajasiga ta'sir etuvchi omil sanaladi hamda faoliyati natijasi ularga bog'liq bo'lib qoladi" ^[7] deb ta'kidlagan bo'lsa, iqtisodiyot fanlari doktori, dots.nt T.Baymurotov esa "sug'urta tashkiloti risklari yuzasidan ehtimollikka ko'ra, sug'urta ta'minotiga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltiruvchi qator omillar xususan iqtisodiyotda nodavlat tarmog'ining kengayishi, uy-joy fondlarining xususiylashtirilishi, aholi turmush darajasining oshib borishi kabi omillar subyektlar tomonidan talab sifatida qo'yilishi mumkin" ^[7] kabi fikr va mulohazalarini o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida bayon etishgan. Xorijlik olimlar guruhi iqtisodiyot fanlari doktori PhD, I.Glotovanning fikricha "Riskni baholashning birinchi bosqichi mavjud xavfni aniqlashdir. Mazkur bosqich yakuniy maqsadga erishishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xavflarni aniqlash va tavsiflashni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich, aniqlangan xavfning vujudga kelish manbasi va sababi tahlil etilsa, uchinchi bosqichda riskning ta'siri natijasida hosil bo'lgan zararlar baholanadi" ^[3] deb ta'kidlagan bo'lsa, iqtisodiyot fanlari doktori PhD, Ye.Tomilina esa "Sug'urtada xavflarni baholash usuli ikki guruhga ajratiladi bular statistik usuli, ekspert usuli. Statistik usul riskni, zarar miqdorini, noxush hodisalarning yuzaga kelish ehtimolini aniqlashga imkon beradi" ^[3] deya o'zlarining ilmiy nazariy tadqiqotlarida keltirib o'tishgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug'urta tashkilotining innovatsion risklarini aniqlash va baholashdan avval innovatsion sug'urta riski haqida boshlang'ich bilimlarga ega bo'lish lozim. Innovatsion sug'urta riski – bu sug'urta sohasida yangi usullar, texnologiyalar, mahsulotlar yoki xizmatlarni joriy etish bilan bog'liq potentsial tahdid ehtimolidir. Hozirgi vaqtda sug'urta tashkilotining innovatsion risklarini baholashda Rossiya federatsiyasining "Ekspert RA" reyting agentligi ma'lumotlariga ko'ra, mavjud risklarni boshqarish tizimlari va bozor ishtirokchilarining eng past ulushi sug'urta kompaniyalari orasida kuzatilmoqda. ^[15]



1-rasm: Risklarni boshqarish tizimiga ega bozor ishtirokchilari ulushi (foizda)¹

Agar bozor ishtirokchilarining 55 foizida kredit tashkilotlari o'rtasida risklarni boshqarish tizimlari mavjud bo'lsa, unda kompaniyalar umumiy sonining atigi 5 foizida sug'urta bozori ishtirokchilari orasida risklarni boshqarish tizimlari mavjud. Ko'rinib turibdiki, bu holat, boshqa sohalar qatori, turli tartibga soluvchilar yordamida bank sektorining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha xalqaro standartlarga amal qiladigan davlat organlari tomonidan bank faoliyatini tartibga solishning yanada uzoq muddatli va yaxshi yo'lga qo'yilgan mexanizmi bilan izohlanadi.

Xalqaro amaliyotda to'lov qobiliyati II (Solvency II) direktivasi (keyingi o'rinlarda direktiva deb yuritiladi) yevropa ittifoqining sug'urtalovchilar va sug'urta guruhlarini faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishda riskga asoslangan yondashuv tushunchasidir. ^[5] Direktivani amalga oshirish sug'urta kompaniyalari risklarini boshqarish va baholash uchun samarali tizimni yaratishga xizmat qiladi. Mazkur tizim tadqiqot sifatida birinchi marta

1 Tadqiqot materiallari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Shimoliy Amerika, Yevropa, Osiyo tinch okeani, Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlarida o'tkazilgan. "Accenture Global" (Menejment bo'yicha konsalting, texnologiya va outsorsing sohasida xizmatlar ko'rsatadigan) xalqaro kompaniyasi ushbu tadqiqotlari va ularning natijalari xaqqoniyligini tasdiqlaydi.

Baholash va boshqarish sifatini oshirish vazifasi barcha sug'urta kompaniyalari uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Sug'urta tashkilotlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, kompaniyalar quyidagi uchta asosiy yo'nalish bo'yicha xatarlarni boshqarish imkoniyatlarini yaxshilashga intilmoqda: ^[10, 12]


1. ichki hisobotni takomillashtirish (58%);
2. moliyaviy risklarni kamaytirish (52%);
3. moliyaviy xizmat va boshqaruv integratsiyasini kuchaytirish (52%).

Amaliyotda to'lov qobiliyati II direktivasi uchta asosiy komponentga asoslanadi:

- miqdoriy talablar (masalan, kapital talablari),
- risklarni baholash va boshqarish tizimiga sifat talablari
- nazorat organlari tomonidan tartibga solish (hisobot va oshkor qilish talablari).

Accenture tajribasi shuni ko'rsatadiki, sug'urtalovchilar uchun to'lov qobiliyati II dan foydalanishning ijobiy ta'siri belgilangan maqsadlarning sifatiga va direktivani amalga oshirish yondashuviga bog'liq. To'lov qobiliyatini amalga oshirish yangi talablarga, shu jumladan IT ni qo'llab-quvvatlash sohasida muvofiqligini ta'minlash yuzasidan kompleks strategiyani ishlab chiqishni zarurligini talab qiladi. ^[4] IT arxitekturasini nuqtayi nazaridan risklarni baholash markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan shaklda amalga oshirilishi mumkin.

Accenture xalqaro tashkiloti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, buxgalteriya hisobi, hisobot va sug'urta operatsiyalarini boshqarish sohasidagi axborot texnologiyalari xarajatlarining 25-30% ko'plab interfeyslar, turli xil ma'lumotlar bazalari va funksiyalarning mavjudligi bilan bog'liq. ^[4] Shu munosabat bilan sug'urta kompaniyasining innovatsion rivojlanishi uchun xavflarni nazorat qilish tizimini shakllantirish kompaniyaning axborot bazasini birlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Natijada, bu kompaniya rahbariyatiga risklarni baholash va boshqarish tizimini optimallashtirish uchun to'lov qobiliyati II standarti qoidalaridan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.



2-rasm: Risklarnig ikchi va tashqi omillari²

To'lov qobiliyati II qoidalariga muvofiq sug'urta tashkiloti quyidagi risklarga asoslanishi lozim: ^[6]

- 1) andarrayting riski – narxlarning yetarli emasligi va zaxiralarning shakllanishi tufayli sug'urta majburiyatlari qiymatining yo'qolishi yoki salbiy o'zgarishi riski;
- 2) bozor riski – tashkilotning moliyaviy holatidagi yo'qotishlar, salbiy o'zgarishlar xavfi, bozorning darajasi va o'zgaruvchanligining o'zgarishi, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy vositalar narxlariga bevosita yoki bilvosita bog'liq;

2 Tadqiqot materiallari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



- 3) kredit riski – bu qimmatli qog'ozlar emitentlari, kontragentlar va har qanday qarzдорlarning kreditga layoqatligining o'zgarishi natijasida, kontragentning bankrotligi riski, ko'payish riski va bozor konsentratsiyasi riski ko'rinishidagi yo'qotishlar yoki moliyaviy vaziyatning salbiy o'zgarishi riski;
- 4) operatsion risk – salbiy jarayonlar yoki tashqi hodisalar natijasida yuzaga keladigan yo'qotish riski;
- 5) likvidlik riski – tashkilot o'z investitsiyalari va boshqa aktivlari yetuk bo'lganda moliyaviy majburiyatlarini bajarish uchun amalga oshira olmasligi riski;
- 6) favqulodda yo'qotishlar riski – sug'urta tashkilotining to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini buzishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar riski.

To'lov qobiliyati II standartiga muvofiq sug'urta kompaniyasining risk tizimi ma'lum darajada Yevropa risk menejerlari assotsiatsiyalari Federatsiyasining risklarni boshqarish standartlarida tashkilotning ichki va tashqi muhitida aniqlangan asosiy risklar tizimiga mos keladi. ^[6]

Integratsiyalashgan boshqaruv obyektlari sug'urta risklari, moliyaviy risklar, tadbirkorlik yoki umumiy risklar bo'lishi kerak va sug'urta tashkilotining innovatsion yo'naltirilgan rivojlanishi sharoitida innovatsion loyihalarni amalga oshirish risklarini boshqarishning mustaqil obyekti sifatida qaralishi kerak.

Sug'urta tashkilotining innovatsion rivojlanish risklari yuqorida keltirilgan risklarning yig'indisini o'z ichiga oladi, chunki innovatsion faoliyat nafaqat innovatsion loyihalarning o'zi, balki moliyaviy va umumiy risklaridir. Shunday qilib, innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan sug'urta tashkilotining barcha risklari aniqlanishi, tahlil qilinishi va baholanishi kerak. Sug'urta tashkilotining risklarni baholash va boshqarish tizimi korporativ boshqaruvni optimallashtirishni ta'minlaydi.

Sug'urta ma'lum ma'noda iqtisodiy faoliyatning boshqa sohalariga nisbatan xizmat ko'rsatish sohasi ekanligini hisobga olib, sug'urta tashkilotining innovatsion rivojlanish risklarini baholash va boshqarish sug'urta kompaniyasining mavjud va potensial mijozlari uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarning tarqalishining oldini oladi. ^[2, 12, 14] Biznes uchun mavjud asosiy risklarni quyidagi jadvalda ko'rib chiqamiz.

1-jadval: 2021-yilda xalqaro biznes uchun 10 ta asosiy xavf³

T/r	Risk turlari	2021-yil, taxmin qilingan	2019-yil	
			Riskni baholash	Risk o'rni
1	Biznesning uzilishi xavfi, ta'minot zanjiri	43 %	46 %	(1)
2	Tabiiy ofatlar (masalan, to'fon, suv toshqini, zilzila)	33 %	44 %	(2)
3	Yong'in, portlash xavfi	24 %	31 %	(3)
4	Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish	21 %	17 %	(4)
5	Bozorda turg'unlik yoki pasayish xavfi	19 %	12 %	(8)
6	Obro' yoki brend qiymatini yo'qotish xavfi (masalan, ijtimoiy media ta'siri ostida)	15 %	10 %	(10)
7	Raqobatning kuchayishi	14 %	17 %	(5)
8	Kiberjinoyatlarning kuchayishi, IT infratuzilmasidagi nosozliklar, josuslik xavfi	12 %	Riskning yangi turi	
9	O'g'irlik, firibgarlik, korrupsiya xavfi	10 %	Riskning yangi turi	
10	Sifat kamchiliklari, ketma-ket nuqsonlar xavfi	10 %	13 %	(6)

2021-yilda kompaniyalar uchun eng jiddiy risklar bu – ishlab chiqarish va ta'minot zanjiridagi uzilishlar, tabiiy ofatlar, yong'inlar va portlashlardir. Kiber risklar va kompaniya prestijiga zarar yetkazish 2019-yilga nisbatan risk reytingida sezilarli darajada ko'tarildi. O'tkazilgan tadqiqot biznes risklarining tobora murakkablashib borayotganini ta'kidlaydi, xususan, yangi texnologik, iqtisodiy va tartibga soluvchi risklarning kombinatsiyasi biznes uchun yangi tizimli tahdidni keltirib chiqaradi. Ishlab chiqarish va ta'minot zanjiridagi uzilish mulkni sug'urtalash bo'yicha barcha zararlarining taxminan 50-70% ni tashkil qiladi. 2021-yilda ularning umumiy hajmi 26 milliard dollarini tashkil etdi ^[6]. Ta'minot zanjirlari tobora murakkablashib borayotganligi sababli, ulardagi har qanday uzilishlar, jumladan, tabiiy ofat, IT aloqasi yoki telekommunikatsiyalardagi uzilishlar, transport muammolari, yetkazib beruvchilarning bankrotligi yoki fuqarolar tartibsizliklari tufayli kumulyativ ta'sirga olib kelishi mumkin. Eng jiddiy risklardan yana biri tabiiy ofatlar bo'yicha yo'qotishlardir. Mazkur turdagi yo'qotishlar ishlab chiqarishdagi uzilishdan ham kattaroq bo'lib, 2021-yil holatiga ko'ra 38 milliard dollarni tashkil etdi ^[6]. Bunday sharoitda ishlab chiqarishdagi uzilishlardan himoya qilish uchun sug'urta xizmatlariga talab obyektiv ravishda o'sib bormoqda. Rossiya kompaniyalarining boshqaruv darajasi korporativ boshqaruvning xalqaro standart-

3 Tadqiqot materiallari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



lariga tobora yaqinlashayotganini hisobga olib, sug'urta tashkilotlari potensial mijozlarga biznesdagi muvaffaqiyatsizliklar va uzilishlar bilan bog'liq risklardan sug'urta qilish bo'yicha takliflarni oldindan ishlab chiqishlari kerak. Rossiya amaliyotida yong'in sug'urtasi degan tushuncha mavjud, bu asosan uy xo'jaliklari darajasi-dagi mijozlar uchun muhimroq. Salomatlik va ifloslanish bo'yicha global alyans (GAHP) 60 dan ortiq a'zo va o'nlab kuzatuvchilarga yega bo'lgan hamkorlikdagi organ bo'lib, ifloslanish bilan kurashish uchun yechimlar va resurslarni himoya qiladi. "Global Allianz" mutaxassislarining fikriga ko'ra, kiber xavflar va obro'ga zarar 2021-yilda yeng ko'p tashvish tug'dirdi. "Xavf barometri"da kiber xatarlar o'n beshinchi o'rindan sakkizinchi o'ringa ko'tarilib, reytingning o'ninchi qatoridan oltinchi qatoriga ko'tarildi (1-jadval). Uyushgan kiberjinoyatchilikning o'sishi fonida korporativ IT xavfsizligi yetarli emas deb baholandi. So'nggi ikki yil ichida chet mamlakatlarning bir nechta yirik kompaniyalari turli sabablar bilan ma'lumotlarning sizib chiqishidan jiddiy zarar ko'rdi. Chet mamlakatlar sug'urta tashkilotlari kiberjinoyatchilik ular uchun yeng muhim tahdidlardan biriga aylanib borayotganini tushunishmoqda. axborot texnologiyalari bilan bog'liq risklardan sug'urta qilish (kiber xatarlarni sug'urtalash) nafaqat xatarlarni boshqarish vositasi, balki sug'urta kompaniyalari tomonidan taqdim etiladigan qo'shimcha xizmatga aylanmoqda.

XULOSA

Sug'urta tashkilotlarining innovatsion risklarini tahlil qilish va baholash sug'urta xizmatlarini yangi va zamonaviy bozorlarga kirishga va yangi mijozlarni jalb qilishga yordam beradi. Bunda sug'urta tashkilotlari sug'urta qildiruvchilarga yanada qulay va intuitiv xizmatlarni taqdim etishadi. So'ngi yillarda yuk tashish, kemasozlik, mashinasozlik va qurilishda tabiiy ofatlar birinchi, o'g'irlik, firibgarlik va korrupsiya ikkinchi pog'onani band etdi. O'g'irlik, xususan, ichki firibgarlik ham transport sohasida jiddiy xavfdir. Aviatsiyada keng ko'lamli kiberhujumlarning mumkin bo'lgan oqibatlari xavfi kuchaymoqda, chiptalarni bron qilish tizimlari va mijozlar ma'lumotlarining o'zaro bog'liqligi shular jumlasidandir. Kiberjinoyatchilik moliyaviy xizmatlar sohasida o'sib borayotgan xavf sifatida qayd etilgan. Sug'urta tashkiloti risklar boshqaruvini optimallashtirishni va ushbu jaryonda innovatsion yechimlardan foydalanishni talab qiladi. Shuningdek, axborot texnologiyalari va texnologik innovatsiyalar sug'urta tashkilotlariga xarajatlarni kamaytirishga va operatsion samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, sug'urta ma'lum ma'noda iqtisodiy faoliyatning boshqa sohalariga nisbatan xizmat ko'rsatish sohasi ekanligini hisobga olsak, innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan sug'urta tashkilotining barcha risklari aniqlanishi, tahlil qilinishi va baholanishi kerak deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi "Baholash faoliyati to'g'risida" O'RQ-811-I-son Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida" O'RQ-730-son Qonuni.
3. Глотова И., Томилина Е. Современные методики оценки рисков страховых организаций. "КАНТ" научный рецензируемый журнал. 2020 г. №4.
4. Барабанова В., Совершенствование стандартов оценки платежеспособности страховщиков. Опыт центрально-восточной Европы. Страховое дело. – 2019. №1.
5. Ромащенко Б. Финансовые риски и методы их оценки. КАНТ научный рецензируемый журнал 2014 г. №2.
6. Саркисов С. Идентификация, анализ и оценка рисков инновационного развития страховой организации. Региональные проблемы преобразования экономики научный журнал. 2015 г. №3.
7. Shennayev X. Sug'urta ishi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2014. 248 b.
8. Abduraxmonov I. Sug'urta nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma, – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2018. 380 b.
9. Андреева Е. Страхование: курс лекций. – Иркутск: Изд-во БГУ, 2015. – 263 с.
10. Nosirov E., Shovkatov N., Aktamov B. Baholash ishi. Toshkent: Nihol Print, 2021. 250 b.
11. Shoha'zamiy Sh. Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari. Darslik. Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2018. 492 b.
12. Xomitov K., Xomitova K., Ko'paysinova L. Mulk qiymatini baholash O'quv qo'llanma. – Toshkent: Tahririy-nashriyot, 2023. 350 b.
13. <https://uza.uz>.
14. <https://www.lex.uz>.
15. <https://raexpert.ru>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.